



MAMLAKATIMIZ YAIM NING TAHLILI VA UNING RIVOJLANTIRISH CHORA TADBIRLARI

Qurbonov Akbar Yusufovich

Tel: +998 97 532 99 77

Email: azizbekkamronbekdavronbek@gmail.com

Shokirov Humoyiddin Baxriddin o'g'li

Tel: +998 99 944 38 53

Email: shokirovhumoyiddin@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10389705>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-December 2023 yil

Ma'qullandi: 10- December 2023 yil

Nashr qilindi: 15- December 2023 yil

KEY WORDS

YaIM, makroiqtisodiy ko'rsatgich, iqtisodiyot, inflyatsiya, egri soliqlar, amortizatsiya, dividend, investitsiya, eksport, ish haqi,

ABSTRACT

Ushbu maqolada keng ma'noda YaIM haqida tushuncha berilgan. YaIM nima ekanligi, u nima vazifalarni bajarishi, nima uchun YaIM muhim ahamiyatga ega ekanligi bu maqolada o'z aksini topgan. Bundan tashqari mamlakatimizda 2020-2022-yillar oralig'ida YaIM va uning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi qiymati va u nimani anglatishi tushuntirib berilgan.

YaIM (Yalpi ichki mahsulot) har bir mamlakatni iqtisodiy jihatdan qay darajada ekanligini belgilab beruvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Qaysi mamlakatda YaIMning ulushi katta bo'lsa, o'sha mamlakat iqtisodiy jihatdan hamda savdo-sotiq, tashqi iqtisodiy aloqa va rivojlanish borasidan ham ilg'or hisoblanadi. Har bir mamlakat borki o'zining YaIMni kengaytirish ustida bosh qotiradi. Shu jumladan yurtboshimiz bo'lmish Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham mamlakatimizni YaIMni kengaytirish ustida ish yurutmoqdalar.

2021 yil yozida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2026-yilga borib O'zbekiston iqtisodiy o'sish sur'atlarini 1,5 barobarga oshirish va YaIM hajmini kamida 100 mlrd dollarga yetkazishni rejalashtirayotganini ta'kidlagan.

Bundan tashqari 2022-yil 27-yanvar kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida kengaytirilgan videoselektor yig'ilishida iqtisodiyot kompleksi rahbarlari va hokimlariga mamlakatimizning YaIMni o'sishi uchun bir qator vazifa va topshiriqlar tayinlandi. Unga ko'ra mamlakatimizda YaIM hajmini 100 milliard dollarga, sanoat ishlab chiqarishni 1,4 barobarga oshirish, kambag'allik darajasini 2 barabarga qisqartirish, inflyatsiya darajasini 9% dan oshmasligini taminlash bosh maqad etib belgilandi.¹

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatning iqtisodiy ahvolini ifodalovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri, YaIM haqida gaplashar ekanmiz eng avvalo YaIM nima? Nima vazifani bajaradi? Nima uchun mamlakatlar YaIM hajmini oshirish muhim masala hisoblanadi? Manashu kabi savollarga javobni o'rganib chiqadigan bo'lsak. YaIM mamlakat

¹ <https://www.uzreport.news/economy/prezident-yalpi-ichki-mahsulot-hajmini-100-mlrd-dollarga-yetkazish-kambag'allik-darajasini>

ichida ishlab chiqarilgan tavarlar va ko'rsatilgan xizmatlar yig'indisiga teng. Uning iqtisodiy ma'nosini quyidagicha ifodalashimiz mumkin.

YaIM - bir yil mobaynida, mamlakat hududida, kim tomonidan ishlab chiqarilishida qat'iy nazar ishlab chiqarilgan yakuniy tavarlar va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor ko'rinishidagi qiymatiga teng.

Har bir mamlakat YaIM hajmini yil yakunida mamlakati hududida yuz bergan jarayon-hodisalar, ishlab chiqarilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar orqali hisoblab o'tgan yilgi YaIM hajmi bilan solishtirishadi. Bu orqali davlat qay darajada iqtisodiy jihatdan yuksalgan yoki aksincha pasayganini tahlil qilishadi. Shu bilan bir qatorda YaIM ni mamlakat aholisining soniga bo'linadi. Bu orqali aholining farovonlik darajasi o'lchanadi. Aholi jon boshig YaIM qay darajada katta yoki kichik bolishi shu mamlakat aholisining farovonlik darajasi past yoki baland bo'lishini ifodalab beradi. Har bir mamlakat bu miqdorni oshirish uchun harakat qiladi. YaIM iqtisodiy faoliytning muayyan davr (oy, chorak, yil) davomidagi umumiy natijalarini tasniflaydigan ko'rsatkichni ham ifodalaydi. Mamlakat hududida joylashgan barcha korxonalar va chet el va qo'shma korxonalar tomonidan jami ishlab chiqarish omillari bilan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning bozor qiymatlaridagi ifodasi bo'lib, uning miqdori milliy hisoblar tizimi asosida hisoblab chiqiladi. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini makrodarajada tavsiflash va tahlil etishda foydalaniladi²

YaIMni hisoblashni 3 xil usuli mavjud bo'lib, bular:

- Ishlab chiqarish usuli
- Xarajatlar usuli
- Daromadlar usuli

Ishlab chiqarish usuli - bunda YaIM barcha qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida aniqlanadi. Ya'ni mamlakat hududidagi barcha ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar yig'indisi va ko'rsatilgan xizmatlar yig'indisi qo'shib topiladi.

Yalpi ichki mahsulot = $\sum QQ$

Xarajatlar usuli - bunda yakuniy is'temolchilarning xarajatlar yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Yalpi ichki mahsulot = $C + I + G + X_n$

Bu yerda C shaxsiy istemol xarajatlari; I investitsiya xarajatlari, yani xususiy ichki investitsiyalar; G davlat xarajatlari yani tovar va xizmatlarning davlat xaridi; X_n chet elliklarning xarajatlari, yani sof eksport

Daromadlar usuli - bunda YaIM barcha yakuniy is'temolchilarning daromadlari yig'indisi sifatida aniqlanadi. Shu bilan bir qatorda YaIM tarkibiga biznesga egri soliqlar va amortizatsiya ham qo'shiladi.

² https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yalpi_ichki_mahsulot

Yalpi ichki mahsulot = Biznesga egri soliqlar + amortizatsiya + ijara haqi + foiz korinishidagi daromadlar + yollanma ishchilarning ish haqi + yakka tartibdagi qoyilmalardan daromadlar + korporatsiya foydasiga soliqlar + dividendlar + korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi

Yuqorida takidlab o'tilgan 3 ta usul orqali YaIM aniqlanadi Biz joriy yil va bazis yillida YaIM qay darajada o'sdi yoki tushganini aniqlash uchun narx deflyatoriga murojat qilamiz. Narxlarning osishi bilan yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmini ozgarishini korsatuvchi miqdorni barcha tayyor mahsulot va xizmatlarning umumiy narx indeksi yoki deflyator deb ataymiz.

$$\text{Joriy yil deflyatori} = \frac{\text{Joriy yildagi bozor savatining bahosi}}{\text{shu yilning narxlarida}} \times 100$$

$$\text{Joriy yil deflyatori} = \frac{\text{Joriy yildagi bozor savatining bahosi}}{\text{bazi yili narxlarida}} \times 100$$


Tadqiqot metodologiyasi. Maskur tadqiqotda statistik jadval va grafiklar, mantiqiy va taqqoslama tahlil, guruhlash usullari hamda mavzuga oid xorijiy, mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari va rasmiy statistik internet saytlaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

2020 yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi 580,2 trln so'mni tashkil qildi. Bu na'lumot haqida habar beradi Davlat statistika qo'mitasi. 2019 yil bilan solishtirganda o'sish 1,6% ni tashkil qilgan. Aholi jon boshiga hisoblangan YAIMning hajmi esa 16,9 mln so'mni tashkil qilgan. Bu 2019 yilgiga qaraganda 0,3 foizga kamaydi. 2020 yil aprelida Jahon banki O'zbekiston YAIMining o'sish darajasi 1,6% bo'lishi kutilayotgani haqida xabar bergan edi. Keyinchalik Jahon banki O'zbekiston YAIM hajmining o'sishi bo'yicha prognozini 1,6 foizdan 1,5 foizgacha pasaytirdi.


YaIM 2020

- Sanoat mahsulotlarining ulushi 341,5 trln
- Xizmat ko'rsatish 194,4 trln
- Mahsulotlarga sof soliqlar 44,3 trln



1-rasm. 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi yanvar-dekabr holati bo'yicha YaIM³

2021 yilda O'zbekistonda YAIM hajmi 734,6 trln so'm yoki 69 mlrd dollarni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YAIM esa 2020 yilga nisbatan 5,3 foizga o'sib, 21 mln so'mdan ortiqroqqa yetdi yoki 1983 dollar ekvivalentiga teng bo'ldi (bunda dollarning o'rtacha yillik kursi — 2021 yilda 10610 so'm etib belgilangan). Bu ko'rsatkich 2020 yilga (59,885 mlrd dollar) nisbatan 7,4 foizga o'sgan. Aholi jon boshiga YAIM esa 2020 yilga nisbatan 5,3 foizga o'sgan. Shuningdek, yanvar oyi boshida Jahon banki O'zbekiston YAIM hajmi 2021 yil 4,3%ga, 2022 yilda 4,5% ga o'sishi kutilmoqda deya xabar berdi.


**2-rasm. 2021-yilda O'zbekiston Respublikasi yanvar-dekabr holati bo'yicha YaIM⁴**

2022 yilda O'zbekiston YAIM hajmi 80,4 mlrd dollarga ko'tarildi. O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 2022 yilda 5,7 foizga o'sib, 888,34 trln so'mni (O'rtacha kurs bo'yicha AQSh dollarida hisoblanganda nominal YAIM 80,38 mlrd dollarni tashkil etdi, bu 2021 yilga nisbatan 11,18 mlrd dollarga ko'p.) tashkil etdi. Aholi jon boshiga YAIM hajmi esa 2255 dollargacha oshdi, deya xabar berdi Statistika agentligi. 2021 yil darajasiga nisbatan real o'sish sur'ati 5,7 foizni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YAIM real ko'rinishda 3,5 foizga — 21,15 mln so'mdan 24,91 mln so'mga (2254,9 dollar) o'sdi. Taqqoslash uchun, 2021 yilda 5,3 foizga, 2020 yilda pandemiya yilida esa 0,1 foizga o'sish qayd etilgan.


³ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/7510-yalpi-ichki-mahsulotni-ishlab-chiqarish-2020-yil-yanvar-dekabr>

⁴ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/17280-yalpi-ichki-mahsulotni-ishlab-chiqarish-2021-yil-yanvar-dekabr>

YalIM 2022

3-rasm. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi yanvar dekabr holati bo'yicha YalIM⁵

YalIM 2020-21-22-yillar oralig'ida

4-rasm. 2020-yildan 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi yanvar-dekabr oralig'i holati bo'yicha YalIM⁶

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizda YalIM hajmini oshirish va aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YalIM qiymatini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

- Mamlakatimizga Xorij investorlarini jalb qilish va ular bilan hamkorlikda ishlarni amalga oshirish;

⁵ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/34026-2022-yilning-yanvar-dekabr-oylarida-o-zbekiston-respublikasida-valpi-hududiy-mahsulot-ishlab-chiqarish>

⁶ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/34026-2022-yilning-yanvar-dekabr-oylarida-o-zbekiston-respublikasida-valpi-hududiy-mahsulot-ishlab-chiqarish>

- Mamlakatimizda tadbirkorlik uchun imkoniyatlar (Targ'ibot ishlarini olib birish, imtiyozli kreditlar ajatish va amaliy yordam bilan qo'llab quvvatlash) yaratish va ularni to'g'ri yo'naltirish;

- Mamlakatimizda YaIM hajmini va qiymatini oshirishda Rivojlangan mamlakatlarning ishlanmalarini andoza qilib olgan holatda o'zimizda joriy qilish;

- Tavarlar va xom ashyolar ishlab chiqarish bilan bir qatorda xizmat ko'rsatish sohasiga ham e'tibor qaratish va bu sohani rivojlantirish uchun dastur ishlab chiqish;

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda xorij investorlarini jalb qilinishi mamlakatimizda ko'plab sohalarni rivojlanishiga olib keladi. Bu rivojlanish daromad shakliga kirganda mamlakatimizning YaIM qiymatiga o'z ulushini qo'shadi. Tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatimizda kambag'allar sonini kamaytirish bilan bir qatorda qo'shimcha daromadning qo'shimcha ish o'rnini yaratilishiga sabab bo'ladi. Bu esa albatta YaIM ga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlarning YaIM ni rivojlantirish ishlanmalarini o'zimizga andoza qilib olishimiz vaqt mablag' jihatdan yutishimizga olib keladi. Yo'l qoyilishi mumkin bo'lgan hatolar va ortiqcha qilinishi mumkin bo'lgan sarf-harajatlar ustidan nazoratni qo'limizga topshiradi. AQSh davlatining YaIM ning katta qismni xizmat ko'rsatish sohasi egallab turgan ekan bu hozirda rivojlanib borayogan dunyoda xizmat ko'rsatis sohasi kelajagi bor soha ekanligini yana bir bor isbotlamoqda. Shu tufayli endilikda biz ham ushbu sohani rivojlantirish ustida bosh qotirishim lozim. Bu zamon talabi!

Umuman olganda, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM ning miqdorini oshishi mamlakatimizning YaIM ga bog'liq ekan. YaIM qiymatini oshirish ishsizlar sonini kamaytirish, aholi farovonlik darajasini oshirish, bu jarayonlar uzviy bog'liq. Quyida aytib o'tilgan jarayonlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda YaIM ulushining ortishiga o'z bo'lsada o'z hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Habibullayev I, Shodiyev X. "Statistika" darslik 2018
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yalpi_ichki_mahsulot
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/01/27/gdp/>
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/01/28/gdp-2021/>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/01/26/yaim/>
6. Asatullayev X, Mamanazarov A, Nazarova "Makroiqtisodiyot" o'quv qo'llanma 2022
7. <https://www.uzreport.news/economy/prezident-yalpi-ichki-mahsulot-hajmini-100-mlrd-dollarga-yetkazish-kambag-allik-darajasini>
8. Hakimov H. A. "O'zbekiston yakuniy iste'mol xarajatlarning yalpi ichki mahsulotga ta'siri va global inqiroz sharoitida uni barqarorlashtirish zarurati" maqola
9. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/7510-yalpi-ichki-mahsulotni-ishlab-chiqarish-2020-yil-yanvar-dekabr>
10. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/17280-yalpi-ichki-mahsulotni-ishlab-chiqarish-2021-yil-yanvar-dekabr>
11. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/34026-2022-yilning-yanvar-dekabr-oylarida-o-zbekiston-respublikasida-yalpi-hududiy-mahsulot-ishlab-chiqarish>
12. Yusupov A, Toshxodjayev A. "O'zbekiston Respublikasida kichik biznes faoliyatining umumiy yalpi ichki mahsulotdagi aholi bandligidagi ulushi" maqola